

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2020-yil yanvar-dekabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1-yanvar holatiga)



2021- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 2 918 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 125,7 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili – (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 126,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,0 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 111,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,2 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – 135,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 126,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o‘sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida (birlikda)




2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 325 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,2 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 104,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 116,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 9,0 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 114,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,7 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 648 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,4 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 139,7 % ga (jami savdodagi ulushi 70,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 116,0 % ga (jami savdodagi ulushi 21,3 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 146,7 % ga (jami savdodagi ulushi 8,4 %) o'sishidir.



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-yanvar holatiga koʻra, birlikda)

8

- Sogʻliqni saqlash sohasidagi faoliyat

388



- Yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash

13



- Yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish

9



Yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-yanvar holatiga koʻra, birlikda)



88

yashash boʻyicha xizmatlar



1 202

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish boʻyicha xizmatlar


2021-yil 1-yanvar holatiga koʻra, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 290 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 113,3 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni koʻpayishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish boʻyicha xizmatlar – 113,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,2 %), yashash boʻyicha xizmatlarning- 107,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,8 %) oʻsishidir.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 1 701 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 658 taga yoki 163,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 602 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 589 taga yoki 158,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 652 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 271 taga yoki 171,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 13 384 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 825 taga yoki 126,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 006 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 677 taga yoki 125,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 225 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 524 taga yoki 119,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 169 tani tashkil etib, ulardan 164 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 13 taga yoki 108,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

	2019- yil	2020- yil
Jami	39	16
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10	10
Sanoat	14	5
Qurilish	3	1
Savdo	9	-
Tashish va saqlash	1	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	-
Boshqa turlar	1	-

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, yillar kesimida

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	67	76	121	155	164
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14	15	33	39	45
Sanoat	40	45	59	75	80
Qurilish	3	3	3	6	6
Savdo	6	9	16	21	20
Tashish va saqlash			1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	1	3	3	3
Axborot va aloqa					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	3	3
Boshqa turlar	1	2	4	6	6

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	164	93	71
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	5	2	3
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	10	7	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'iro't	7	5	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	29	20	9
Nukus	9	6	3
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	5	4	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	4	3	1
Nukus sh.	39	21	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 39 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,8 %), Mo'ynoq 29 ta (17,7 %), Taxiatosh 11 ta (6,7 %), Qorao'zak va Beruniy 10 tadan (6,1 %), Nukus tumanida 9 tani (5,5 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,4 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,4 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,1 %), Qo'ng'iro't (5,8 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,5 %), Chimboy (3,9 %), Taxiatosh (3,3 %), Qorao'zak (3,0 %), Kegeyli (2,8 %), Qonliko'l (2,6 %), Mo'ynoq (2,6 %), Shumanay (2,6 %), Taxtakopir (2,1 %) va Bo'zatov (1,3 %) tumanlari hissalari to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (21,4 %), To'rtko'l (9,2 %), Beruniy (7,9 %), Ellikqal'a (6,3 %), Amudaryo (6,7 %), Qong'iro't (7,1 %), Xo'jayli (5,3 %), Nukus (4,9 %), Taxiatosh (4,0 %), Mo'ynoq (3,7 %), Taxtakopir (3,3 %), Chimboy (4,2 %), Bo'zatov (3,5 %), Shumanay (3,4 %), Kegeyli (3,3 %), Qonliko'l (3,0 %) va Qorao'zak (2,8 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Tumanlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni¹⁾

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Tumanlar kesimida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni²⁾

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




¹⁾ 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

²⁾ Doimiy aholi soni 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra shakllantirilgan


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,7 %), To'rtko'l (11,0 %), Beruniy (7,4 %), Amudaryo (6,5 %), Nukus (5,4 %), Qo'ng'iro't (5,4 %), Xo'jayli (4,9 %), Ellikqal'a (4,0 %), Chimboy (4,0 %), Qorao'zak (3,3 %), Kegeyli (3,0 %), Mo'ynoq (3,0 %), Taxiatosh (2,5 %), Shumanay (1,6 %), Qonliko'l (1,6 %), Bo'zatov (1,5 %) va Taxtako'pir (1,2 %) tumanlari hissasiga tegishli.


Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
 qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi
 (2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar bo'yicha soni

(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)





2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Taxtako'pir (13,8 %), To'rtko'l (12,9 %), Beruniy, Amudaryo va Nukus shahrida (11,0 %) dan, Qonliko'l (9,5 %), Ellikqal'a (5,7 %), Taxiato'sh (5,2 %), Xo'jayli va Nukus tumanida (3,7%) dan, Shumanay (2,9 %), Qorao'zak (2,7 %), Qo'ng'iro't va Mo'ynoq (2,3 %) dan, Kegeyli (0,9 %), Chimboy (0,8 %) va Bo'zatov tumanida (0,6 %) ulushlarini qayd etadi.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)

O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi
Tel.: 61 224-92-09**